

INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA KONSTITUTSIYAVIY SUDNING O'RNI

Yusupova Feruza Baxrombekovna

*Toshkent Davlat Yuridik Universiteti
Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlatimizda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda konstitutsiyaviy sudning o'rni haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Inson huquqlari, davlat, konstitutsiyaviy sud, fuqarolar, sud tizimi, huquqlar, prezident, oliy sud, davlat.*

Hozirgi kunda davlatimizda inson, uning huquqi va erkinliklari oliy qadriyat deya baholanadigan fuqarolik jamiyati shakllanmoqda. Inson huquqlari – bu insonning tug'ilishidan to vafot etguniga qadar butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklaridir. Ushbu universal huquqlar millati, jinsi, irqi, rangi yoki etnik kelib chiqishi, dini, tili yoki boshqa huquqiy maqomidan qat'i nazar, hech qanday kamsitishlarsiz barcha insonlar uchun xosdir. Inson huquqlari yashash huquqi kabi eng asosiy huquqlardan tortib, munosib turmush tarzini ta'minlashga xizmat qiladigan ta'lim olish, mehnat qilish yoki ijtimoiy ta'minot olish kabi huquqlariga qadar barcha huquqlarni qamrab oladi. Inson huquqlari munosib hayot kechirish va insoniy salohiyatimizni rivojlantirishga imkon berish uchun zarur bo'lgan barcha insoniy fazilatlar uchun muhimdir. Inson huquqlarini ta'minlash qo'rquv, ta'qib yoki kamsitishsiz jamiyatda yashash uchun katta ahamiyatga ega. 1948-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ommaviy himoya qilinadigan asosiy inson huquqlarini belgilaydigan birinchi yuridik hujjat bo'ldi. Shuningdek, insonning asosiy huquq va erkinliklari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'limida mustahkamlangan. 19 – moddada aytilishicha, O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi¹⁷.

Hozirgi kunda yurtimizda inson huquqlarini munosib tarzda ta'minlash, himoya qilish va har narsadan ustun qo'yish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda. Xususan, bosh qomusimiz bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquq va erkinliklari yanada mustahkamlanganligi va davlat boshqaruv organlarida inson huquq va erkinliklarini munosib va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga mos ravishda himoya qilinayotganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizda hokimiyatning vakolatlarini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar

¹⁷ <http://nhrc.uz/oz/menu/chtotakoe-prava-cheloveka>

ko'rilmoqda. Bu orqali yurtimizda xalqchil va demokratik davlat hokimiyati tizimi ham shakllanmoqda. Sud hokimiyati, jumladan, uning markaziy bo'g'ini - Konstitutsiyaviy sud davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i sifatida qaror topdi. Konstitutsiyaviy odil sudlov konstitutsiyaviy nazoratning oliy shakli bo'lib, zamonaviy demokratik davlatchilikning alohida talabi va muhim instituti hisoblanadi. Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlash hamda qonuniylik muhitini yartish inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashning ishonchli usulidir¹⁸. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risidagi qonunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining vakolatlari keltirib o'tilgan. Ushbu qonunning 4- moddasiga ko'ra Konstitutsiyaviy sud;

1) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

2) O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

3) Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunlarining O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi;

4) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

5) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo'llanilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to'g'risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko'rib chiqadi;

6) Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risida axborot taqdim etadi.

Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari muayyan ishda qo'llanilgan va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq bo'lmagan qonunda buzilgan deb hisoblovchi fuqarolar hamda yuridik shaxslarning shikoyatlarini ham ko'rib chiqadi¹⁹.

Yuqorida keltirib o'tilganlardan shuni tushunish mumkinki, Konstitutsiyaviy sud nafaqat O'zbekiston Respublikasi qonunlari va davlat organlarining qarorlarini konstitutsiyaga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradi, balki, agar qonun

¹⁸ <https://constitution.uz/oz/pages/maqola>

¹⁹ <https://lex.uz/docs/-5391934>

fuqarolar va yuridik shaxslarning fikricha, ularning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzayotgan bo'lsa, konstitutsiyaga muvofiq kelmasa hamda sudda himoya qilishning barcha boshqa vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, ular qonunning Konstitutsiyasiga muvofiqligini tekshirish to'g'risidagi shikoyat bilan konstitutsiyaviy sudga murojaat etishga haqlidir²⁰.

Aynan ushbu sohasadagi amaliy misollarga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi M.X o'zining 2022-yil 19-apreldagi Konstitutsiyaviy sudga yuborgan shikoyatida, shuningdek Konstitutsiyaviy sud majlisida Fuqarolik kodeksi 197 va 206-moddalari, hamda Uy-joy kodeksi 11 va 27-moddalari uning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini buzayotgan, Konstitutsiyaga muvofiq emas hamda sudda ko'rilishi tugallangan muayyan ishda qo'llanilgan va sudda himoya qilishning barcha boshqa vositalaridan foydalanib bo'lingan deb hisoblab, ularning Konstitutsiyaning 53 va 54-moddalariga muvofiqligini aniqlashni so'ragan.

Aniqlanishicha, Toshkent shahar hokimining 2019-yil 12-fevraldagi 225-son qarori bilan "B-B-STROY" MChJga Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Oltintepa ko'chasida joylashgan 0,925 gektar yer uchastkasini dastlabki zaxiraga olish va ko'p qavatli uy-joy (binolar)ni qurish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun ruxsat berilgan. Mazkur qarorning ilovasida boshqa uylar qatorida fuqaro M.Xga tegishli, Oltintepa ko'chasidagi 249-uy ham buzilishi belgilangan. Toshkent shahar Fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudining hal qiluv qaroriga ko'ra, fuqaroning javobgar "B-B-STROY" MChJga nisbatan qurilish ishlarini to'xtatish haqidagi da'vo talablari qanoatlantirilmadan qoldirilgan²¹. Shundan so'ng fuqaro apellatsiya tartibida sudga shikoyat qilganida, Toshkent shahar fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hayatining ajrimiga ko'ra, fuqaroga tegishli bo'lgan, kvartiraga bo'lgan mulk huquqini bekor qilish belgilangan. Fuqaro O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga kassatsiya shikoyati bilan murojaat qilganda, ajrim o'zgarishsiz qoldirilgan. Shundan so'ng fuqaro o'z konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga murojaat qilganida, ish fuqaro foydasiga hal qilingan va uning buzilgan huquqlari tiklab berilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, yurtimizda inson huquqlari va manfaatlar har qanday davlat organlarining chiqargan qarorlaridan ustun turadi va himoya qilinadi. Shuningdek, yurtimizda konstitutsiyaviy sud insonlarning buzilgan huquqlarini tiklashda va himoya qilishda va bosh qomusimiz bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ustuvorligi yanada mustahkamlashda jamiyat va davlat hayotida muhim ro'l o'ynaydi. Inson huquqlarini sud orqali himoya qilish inson huquqlari va erkinliklari himoya qilish mexanizmining tarkibiy va hal qiluvchi qismidir. Chunki, sud, aynan konstitutsiyaviy sud buzilgan inson huquqlari va erkinliklarini tiklash tizimida eng muhim vosita hisoblanadi²².

²⁰ <https://uzmarkaz.uz/en/news/konstitutsiyaviy-islohotlarda-sud-tizimining-takomillashuvi>

²¹ <https://lex.uz/ru/docs/-6072951>

²² <https://qoraqalpoq.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=50969>

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishda sud tizimi, aynan, Konstitutsiyaviy sudning o’rni kattadir. Chunki aynan Konstitutsiyaviy sud, davlatdagi eng oliy kuchga ega bo’lgan normativ huquqiy hujjat, konstitutsiyada mustahkamlab o’tilgan insonning eng oliy huquqlari va manfaatlari buzilgan hollarda, ularni tiklashi va himoya qilishi mumkin. Shuningdek, sudning chiqargan qarorlari barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun majburiydir. Bunda ham ko’rishimiz mumkinki, sudlar aynan fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlari va manfaatlarini ta’minlaydi va ularni himoya qiladi.

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori.

Foydalanilgan internet manbaalar ro‘yhati:

- 1) Nhrc.uz
- 2) Constitution.uz
- 3) Lex.uz
- 4) Uzmarkaz.uz
- 5) Qoraqalpoq.adliya.uz